

## DEMOGRAFIK HOLAT

**Doimiy aholi soni.** O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 2019 yil 1 iyul holatiga 33523,6 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 268,1 ming kishiga yoki 0,8 %ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 16939,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,5 %), qishloq aholisi soni 16584,0 ming kishini (49,5 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**  
**2019 yil yanvar-iyun**

Doimiy aholi soni **268,1 ming kishiga** ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **347,4 ming nafarni** tashkil etdi.

**75,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.

FHDYO bo'limlarida **104,2 mingta nikoh** va **16,0 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.


**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar**  
(yanvar-iyun, ming kishi)

	2018 y.	2019 y.
<b>Doimiy aholi soni, davr oxiriga</b>	<b>32 899,2</b>	<b>33 523,6</b>
Tug'ilganlar	324,3	347,4
Vafot etganlar	75,6	75,8
Aholining tabiiy o'sishi	248,7	271,6
Kelganlar	83,9	78,9
Ketganlar	90,1	82,4
Migratsiya saldos	-6,2	-3,5
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	105,1	104,2
Nikohdan ajralishlar, ming birk	16,4	16,0
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
tug'ilish	20,0	21,0
o'lim	4,6	4,6
aholining tabiiy o'sishi	15,4	16,4
tuzilgan nikohlar	6,5	6,3
nikohdan ajralishlar	1,0	1,0

**Doimiy aholi soni**  
*(1 iyul holatiga)*

	2018 y.	2019 y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>32 899,2</b>	<b>33 523,6</b>	<b>101,9</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 853,7	1 881,9	101,5
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	3 032,2	3 088,6	101,9
Buxoro	1 876,4	1 906,6	101,6
Jizzax	1 337,0	1 365,5	102,1
Qashqadaryo	3 175,1	3 240,3	102,1
Navoiy	969,8	986,4	101,7
Namangan	2 720,5	2 776,5	102,1
Samarqand	3 753,2	3 833,1	102,1
Surxondaryo	2 537,8	2 594,6	102,2
Sirdaryo	821,9	836,9	101,8
Toshkent	2 876,5	2 917,2	101,4
Farg'ona	3 644,8	3 711,2	101,8
Xorazm	1 815,2	1 846,4	101,7
Toshkent sh.	2 485,1	2 538,4	102,1


**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi  
(2019 yil 1 iyul holatiga; respublika jami aholisiga nisbatan, %da)**



Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand viloyatida respublika aholisi sonidagi ulushi 11,4 %ni tashkil etib, keyingi o'rinlarda Farg'ona viloyatida 11,1 %ni, Qashqadaryo viloyatida 9,7 %ni va Andijon viloyatida 9,2 %ni tashkil etgan.


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil 1 iyul holatiga Respublika doimiy aholi sonining 30,5 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 59,3 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,2 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi  
(2019 yil 1 iyul holatiga; jamiga nisbatan, % da)**




**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 347,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,0 promilleni tashkil etdi hamda 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,0 promillega oshganligi (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 20,0 promille bo'lgan) kuzatildi.

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti  
(2019 yil yanvar-iyun)**




Ma'lumot uchun: *Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*

### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (yanvar-iyun)



Ma'lumot uchun: *Adliya vazirligining Davlat xizmatlari agentligining FHDYO organlarida jami 361,8 mingta tug'ilganlik holati qayd etilgan bo'lib, shundan 347,4 mingtasi tirik tug'ilganlar, 3,3 mingtasi o'lik tug'ilganlar va 11,1 mingtasi 2019 yil yanvar oyida ro'yxatdan o'tib, 2018 yilda tug'ilganlar, xalqaro tavsiyalarga asosan, 2018 yilning yakuniy ma'lumotlarida inobatga olingan.*

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni  
(yanvar-iyun)






**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 75,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 4,6 promille bo'lgan).


*Ma'lumot uchun: Adliya vazirligining Davlat xizmatlari agentligining FHDYO organlarida jami 79,4 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 75,8 mingtasi joriy yilda vafot etgan, 3,6 mingtasi mingtasi 2019 yil yanvar oyida ro'yxatdan o'tib, 2018 yilda vafot etganlar, xalqaro tavsiyalarga asosan, 2018 yilning yakuniy ma'lumotlarida inobatga olingan.*

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)**






**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha vafot etganlar soni  
(yanvar-iyun)**




**Hududlar kesimida go'daklar o'limi koeffitsiyenti  
(2019 yil yanvar-iyun holatiga; 1000 tirik tug'ilganga nisbatan)**




2019 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,1 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,5 %i - o'simtalardan, 5,3 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,5 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,4 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,4 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,8 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 3,4 ming nafarni tashkil etib, ularning 55,3 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 20,4 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 13,3 %i - tug'ma anomaliyalardan, 2,2 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,4 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,8 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 5,6 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi  
(2019 yil yanvar-iyun holatiga; jami vafot etganlarga nisbatan, %da)**



**Hududlar kesimida asosiy o'lim sabablari bo'yicha  
vafot etganlarning taqsimlanishi  
(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)**



O'lim koeffitsentlari to'g'risida ma'lumot  
(2019 yil yanvar-iyun)



**Tabiiy o'sish.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 271,6 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 22,9 ming kishiga (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 248,7 ming kishi bo'lgan) o'sgan.

Tabiiy o'sish — 271,6 ming kishi



**Nikoh.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 104,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,3 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahri (6,5 %), Namangan viloyati (5,8 %), Buxoro (5,0 %), Sirdaryo (4,0 %) va Toshkent (3,4 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot  
(yanvar-iyun)**




**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 16,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli kamayish Qoraqalpog'iston Respublikasida (14,3 %), Qashqadaryo (11,1 %) va Samarqand (10,5 %) viloyatlarida kuzatildi.


**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar  
va nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti**

(2019 yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Ajrimlar sonida 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahri (10,0 %) va Namangan (8,3 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-iyun)**





**Migratsiya.** 2019 yil yanvar-iyun oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 78,9 ming kishini (77,5 ming kishi respublika hududlaridan, 1,4 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 82,4 ming kishini (77,5 ming kishi respublika hududlariga, 4,9 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 3,5 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 6,2 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi

*ming kishi*

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	83,9	78,9
Ko'chib ketganlar	90,1	82,4
Migratsiya saldosi	-6,2	-3,5


Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Qashqadaryo (minus 3,3 ming kishi), Samarqand (minus 2,5 ming kishi), Toshkent, (minus 1,9) viloyatatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (minus 1,7 ming kishi) qayd etildi.

Migratsiya saldosinging ijobiy darajasi Toshkent shahrida (plus 12,9 ming kishi) kuzatildi.

## XORIJIY MIGRATSIYA

### O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-iyun oylarida, jami xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarga nisbatan, %da)



● Qozog'iston ● Tojikiston ● Rossiya ● Qirg'iziston ● Boshqa davlatlar




Doimiy yashash uchun



O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar soni - 1361 kishi

### O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-iyun oylarida, jami xorijga ko'chib ketganlarga nisbatan, %da)



● Qozog'iston ● Rossiya ● AQSh ● Isroil ● Boshqa davlatlar



Doimiy yashash uchun






O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni - 4847 kishi

**Poytaxtdagi demografik holat.** O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining doimiy aholisi soni 2019 yil 1 iyul holatiga 2538,4 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 28,5 ming kishiga yoki 1,1 %ga o'sgan.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida 23,3 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 18,6 promilleni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 2,0 ga (2018 yilning mos davrida 16,6 promille bo'lgan) o'sdi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida 7,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 267 nafari 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 6,2 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,3 ga kamaydi (2018 yilning mos davrida 6,5 promille bo'lgan).

**Toshkent shahri bo'yicha aholining tabiiy harakati**  
(1000 aholiga nisbatan, promille)

	2018 yil yanvar-iyun		2019 yil yanvar-iyun	
Tug'ilish	16,6		18,6	↑
O'lim	6,5		6,2	↓
Tabiiy o'sish	10,1		12,4	↑


Poytaxt aholisining tabiiy o'sishi 15,6 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 3,2 ming kishiga o'sishi (2018 yilning mos davrida 12,4 ming kishi bo'lgan) kuzatildi.

FHDYO organlarida 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 8,2 mingta nikoh va 2,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,5 promilleni tashkil qilib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,3 ga o'sdi (2018 yilning mos davrida - 6,2 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,8 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega (2018 yilning mos davrida 1,7 promille bo'lgan) o'sgan

### **Toshkent shahrida tuzilgan nikoh va ajrim** (1000 aholiga nisbatan, yanvar-iyun holatiga, promille)



Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi  
(71) 230-80-65, 66